

## SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

**Muxtarov Maxmudjon Marifovich**

Andijon davlat texnika instituti  
“Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti  
E-mail: [m.m.muxtorov@mail.ru](mailto:m.m.muxtorov@mail.ru)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada sanoat korxonalarida kapital mablag‘lardan samarali foydalanishni oshirishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Investitsiya resurslarini oqilona taqsimlash, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda qaytimini oshirish masalalari o‘rganilgan. Korxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** sanoat korxonalari, kapital mablag‘lar, investitsiya, samaradorlik, investitsiya qaytimi, modernizatsiya, innovatsiya, resurslardan foydalanish, iqtisodiy o‘shirish, raqobatbardoshlik

### Аннотация

В данной статье проанализированы основные направления повышения эффективности использования капитальных вложений на промышленных предприятиях. Изучены вопросы рационального распределения инвестиционных ресурсов, оценки их экономической эффективности и повышения отдачи. Также освещено значение внедрения инновационных технологий на предприятиях. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации.

**Ключевые слова:** промышленные предприятия, капитальные вложения, инвестиции, эффективность, окупаемость инвестиций, модернизация, инновации, использование ресурсов, экономический рост, конкурентоспособность.

### Abstract

This article analyzes the main directions for improving the efficient use of capital investments in industrial enterprises. It examines the rational allocation of investment resources, the assessment of their economic efficiency, and ways to increase investment returns. The importance of introducing innovative technologies in enterprises is also highlighted. Based on the research results, practical recommendations have been developed.

**Keywords:** industrial enterprises, capital investments, investment, efficiency, return on investment, modernization, innovation, resource utilization, economic growth, competitiveness

### KIRISH

Global iqtisodiyotda investitsion resurslardan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash va sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Ayniqsa, sanoat korxonalarida kapital mablag‘lardan oqilona foydalanish ishlab chiqarish hajmini kengaytirish,

mahsulot sifatini yaxshilash, eksport salohiyatini oshirish hamda korxonalarining raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kapital qo'yilmalar ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda investitsiya muhitini yaxshilash, sanoat korxonalariga ichki va xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish hamda kapital mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligi va investitsion faollik bosqichma-bosqich oshib bormoqda.

Sanoat korxonalarida kapital mablag'lardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish, investitsiya loyihalarning iqtisodiy natijadorligini kuchaytirish va ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish masalalari dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va zamonaviy investitsion tahlil usullaridan foydalanish sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarida kapital mablag'lardan samarali foydalanish masalasi iqtisodiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan bo'lib, u korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash va investitsion siyosatni optimallashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Ko'plab iqtisodchi olimlar kapital mablag'larning mohiyati va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini tadqiq etganlar. Jumladan, V.M Serov, Yu.P. Tixonovlar o'z tadqiqotlarida sanoat korxonalarining iqtisodiy natijalarini tadqiq qilish mavjud ishlab chiqarish korxonalarini samaradorligiga investitsiya joriy etilgan korxonalar samaradorligi farqi, bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchilar natijaviyligi, aniq sohaga imtiyozli investitsiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratganlar<sup>1</sup>. Amaliyotda ham sanoat korxonalarini faoliyatida kapital mablag'lar va moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy imtiyozlar va rag'batlantiruvchi mexanizmlar orqali qo'llab-quvvatlash ularning investitsiyaviy faolligini oshirishda muhim omil sanaladi. Sanoat korxonalarini iqtisodiy natijalari bevosita kapital mablag'lar sarfi va uning iqtisodiy natijalarga ta'siri asosida o'rganiladi. Y.N Simionova ham sanoat korxonalarini iqtisodiy natijaviyligini kapital qo'yilmalar o'zgarishi, investitsion loyihalarni amalga oshirish natijalari, hamda yangi tashkil etilgan ishlab chiqarish quvvatlarining qiymati

---

<sup>1</sup> В.М.Серов, Ю.П. Тихонов “Сравнительной оценке экономической эффективности инвестиционных вложений в производственный капитал” Вестник университета № 5, 2023 ст.131-141.

o'zgarishi va bozor qiymatini iqtisodiy natijalarga ta'sirini baholagan<sup>1</sup>. Korxonalarda investitsiyalar natijaviyligi ishlab chiqarish ko'lami o'zgarishi, loyiha natijalari, va o'zgarish dinamikasi asosida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini qiyosiy tavsiflash talab etiladi. R. Xamdamov ham to'qimachilik sanoatining global iqtisodiyotdagi o'rni va uning iqtisodiy samaradorligini baholashda investitsiyalarning samaradorligi, mahsulotlar ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va logistika samaradorligini oshirish ko'rsatkichlarini tadqiq qilgan<sup>2</sup>. Amaliyotda ham sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun innovatsiyalardan samarali foydalanish va mahsulot birligi uchun resurs sarfi o'zgarishini baholash talab etiladi. Ushbu tadqiqotlarda V.M. Serov va Yu.P. Tixonovlar sanoat korxonalarida investitsiyalar kiritilgan va an'anaviy korxonalar samaradorligini qiyosiy tahlil qilish orqali kapital qo'yimlarning ishlab chiqarish natijalariga ta'sirini o'rgangan bo'lsa, Y.N. Simionova investitsion loyihalar samaradorligini baholashda NPV, IRR kabi diskontlangan ko'rsatkichlarga tayanilgan holda kapital qo'yimlarning qiymat yaratish jarayonini tahlil qilgan. R. Xamdamov esa tarmoq darajasida, xususan to'qimachilik sanoati misolida, innovatsiyalar, logistika va resurslardan foydalanish samaradorligi orqali investitsiyalarning raqobatbardoshlikka ta'sirini o'rgangan.

## METODOLOGIYA

Barcha tadqiqotlarda kapital mablag'lar va investitsiyalar sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi asosiy omil sifatida qaralib, ularni baholashda turli metodologik yondashuvlar - qiyosiy tahlil, investitsion baholash modellari va tarmoq-innovatsion tahlil usullari qo'llanilgan.

V.B.Daskovskiy, V.B.Kiselevlar o'z tadqiqotlarida investitsion loyihalarining iqtisodiy samaradorligini qiyosiy baholash uchun ko'proq maqbul bo'lgan investitsiyalarning ichki rentabelligi ko'rsatkichini quyidagi tenglikdan aniqlanadi.

$$\sum_{t=0}^N (B_t - Z_t) \frac{1}{(1+Ye)^t} = \sum_{t=0}^N I_t \frac{1}{(1+Ye)^t} \quad (1)$$

Iqtisodiy mazmunida Ye qiymati kapital qo'yimlarning iqtisodiy samaradorligini an'anaviy koeffitsiyentini ifodalaydi, investitsiya loyahasini amalga oshirishning iqtisodiy natijasi sifatidagi foyda miqdorining kiritilgan kapital qo'yimlari nisbatiga teng<sup>3</sup>. Amaliyotda sanoat korxonalarida kapital qo'yimlardan foydalanish samaradorligini quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholash mumkin (1-jadval)

1-jadvalda kapital qo'yimlardan foydalanish samaradorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi keltirilgan. Kapital sig'imi va kapital qaytimi ishlab chiqarish natijasining investitsion resurslarga nisbatan

<sup>1</sup> Симионова Н.Е. Инвестиционные проекты в строительстве: управление и оценка эффективности. Экономика строительства. 2020;2 (62):59-65 с

<sup>2</sup> Xamdamov, R. "To'qimachilik sanoatining global iqtisodiyotdagi o'rni va samaradorligi. Global iqtisodiyot va raqobatbardoshlik. 2021-yil 18(2), 101-107.

<sup>3</sup> Дасковский В.Б., Киселев В.Б. Новый подход к экономическому обоснованию инвестиций. М.: Канон РООИ «Реабилитация»; 2016. 400 с

o'zgarishini ifodalab, resurslardan foydalanish darajasini baholash imkonini beradi. Kapital rentabelligi investitsiyalarning foyda keltirish darajasini ko'rsatsa, sarmoya aylanishi muddati kapital qo'yimalarning o'zini qoplash tezligini aniqlaydi. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi kapital mablag' ko'rsatkichi mehnat va kapital o'rtasidagi nisbatni aks ettirib, ishlab chiqarishning texnik jihozlanish darajasini ifodalaydi. Kapital-intensivlik ishlab chiqarish jarayonida kapital sarfining ulushini ko'rsatsa, ishlab chiqarish samaradorligi indeksi esa kompleks (ko'p omilli) yondashuv asosida resurslardan umumiy foydalanish natijadorligini baholaydi.

### 1-jadval

#### Kapital qo'yimalardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari tasnifi<sup>1</sup>

Ko'rsatkich	Tavsif
Kapital sig'imi	Kapital qo'yimalarning 1 so'miga to'g'ri keluvchi mahsulot miqdori
Kapital qaytimi	Yaratilgan mahsulot/Kapital qo'yimalari
Kapital rentabelligi	Investitsiyadan olingan foyda/Investitsiya miqdori
Sarmoya aylanishi muddati	Kapital investitsiya/Yillik foyda (necha yilda qoplanadi)
Bir ishchiga to'g'ri keluvchi kapital mablag'	Kapital mablag'lar/Ishchilar soni
Kapital-intensivlik	Kapital qo'yimalarning yalpi mahsulotga nisbati
Ishlab chiqarish samaradorligi indeksi	Mahsulot hajmi/Resurslar hajmi (ko'p omilli indekslar asosida)

Mazkur tadqiqotda sanoat korxonalarida kapital mablag'lardan foydalanish samaradorligini baholash va uni oshirish yo'nalishlarini aniqlashda kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini investitsiyalar samaradorligi, kapital qo'yimlar va sanoat iqtisodiyotiga oid xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va dinamik tahlil usullari qo'llanildi. Kapital qaytimi, kapital sig'imi, kapital rentabelligi hamda ishlab chiqarish samaradorligi indekslari asosiy iqtisodiy ko'rsatkich sifatida o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi va Andijon viloyati sanoat tarmoqlari bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, investitsiya samaradorligining o'zgarish tendensiyalari baholandi. Investitsion loyihalarni iqtisodiy baholashda rentabellik va qaytim ko'rsatkichlaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida kapital mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

#### TAHLIL VA NATIJALAR

Kapital qo'yimalardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar Andijon viloyati misolida tahlil qilinganda, ularning respublika o'rtacha darajasiga nisbatan hududiy iqtisodiyotning investitsion faolligi va ishlab chiqarish salohiyati o'rtasidagi farqlar yaqqol namoyon bo'ladi (2-jadval)

<sup>1</sup> Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

**2-jadval**
**O‘zbekiston Respublikasi va Andijon viloyati bo‘yicha kapital qaytimi ko‘rsatkichi dinamikasi, koeffitsiyentda<sup>1</sup>**

Ko‘rsatkichlar	Yillar						
	2015	2017	2020	2021	2022	2023	2024
Kapital qaytimi (iqtisodiyoti bo‘yicha)	3,83	4,19	3,18	3,43	3,60	3,38	2,95
Kapital qaytmi (Andijon viloyati iqtisodiyoti bo‘yicha)	7,11	7,51	4,43	4,37	4,39	4,15	3,22
Kapital qaytimi (mamlakat sanoat tarmog‘i bo‘yicha)	2,22	2,04	1,76	2,11	2,10	1,68	1,06
Kapital qaytimi (Andijon viloyati sanoat tarmog‘i bo‘yicha)	25,25	17,03	10,36	6,93	7,85	6,67	6,14
Kapital qaytimi (Andijon viloyati to‘qimachilik sanoat tarmog‘i bo‘yicha)	2,82	2,76	2,19	4,47	3,89	5,13	3,31

Andijon viloyati kesimida kapital qaytimi ko‘rsatkichining 2015-2024-yillar oralig‘idagi o‘zgarib borgan, Respublika iqtisodiyoti bo‘yicha kapital qaytimi 2017-yilda eng yuqori darajaga 4,19 koeffitsiyentga yetgan bo‘lsa, keyingi yillarda pasayish tendensiyasi kuzatilgan va 2024-yilga kelib 2,95 koeffitsiyentgacha tushgan. Bu holat iqtisodiyotda kapitaldan foydalanish samaradorligining nisbatan pasayganini bildiradi. Andijon viloyati iqtisodiyoti bo‘yicha esa kapital qaytimi barcha davrlarda respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lib, 2017-yilda 7,51 koeffitsiyent bilan eng yuqori qiymatni ko‘rsatgan, biroq keyingi yillarda bosqichma-bosqich kamayish tendensiyasi kuzatilgan. Shunga qaramay, viloyat iqtisodiyotida kapitaldan foydalanish samaradorligi respublika darajasiga nisbatan barqaror yuqoriligini saqlab qolgan. Sanoat tarmog‘i kesimida esa keskin farqlar kuzatiladi: respublika sanoatida kapital qaytimi 2015-yildagi 2,22 koeffitsiyentdan 2024-yilda 1,06 koeffitsiyentgacha sezilarli pasaygan bo‘lib, bu tarmoqda kapital samaradorligining zaiflashganini ko‘rsatadi. Andijon viloyati sanoat tarmog‘ida 2024-yilda 6,14 koeffitsiyentga teng bo‘lgan va dastlabki davrda investitsiya konsentratsiyasining yuqoriligi va keyinchalik ishlab chiqarish bazasining kengayishi natijasida “normalizatsiya” jarayoni bilan izohlanadi. To‘qimachilik sanoati misolida kapital qaytimi nisbatan barqaror dinamikaga ega bo‘lib, 2015-2017-yillarda 2,82-2,76 oralig‘ida saqlangan, 2021-yilda esa 4,47 koeffitsiyentgacha oshib, eng yuqori nuqtaga chiqqan. Keyingi yillarda biroz pasayish kuzatilsa-da, 2024-yilda 3,31 koeffitsiyent darajasida qolgan. Bu esa to‘qimachilik sanoatida kapital qo‘yilmalar nisbatan samarali ishlatilayotganini va tarmoqning barqaror investitsion jozibadorligini ko‘rsatadi. Umumiy xulosa qilib aytganda, Andijon viloyati iqtisodiyoti va sanoat tarmog‘ida kapital qaytimi respublika o‘rtacha

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu holat kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish uchun modernizatsiya, texnologik yangilanish va investitsion boshqaruvni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida kapital mablag'lardan samarali foydalanish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar asosida kapital qo'yilmalar ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda resurslardan oqilona foydalanish orqali yuqori iqtisodiy natijalarga erishishga xizmat qilishi aniqlandi. Ayniqsa, Andijon viloyati sanoat tarmoqlarida kapital qaytimi ko'rsatkichlarining respublika o'rtacha darajasidan yuqori bo'lishi hududning investitsion salohiyati va ishlab chiqarish imkoniyatlari izchil rivojlanayotganini tasdiqlaydi.

Tahlillarda keyingi yillarda kapital qaytimi ko'rsatkichlarida dinamik o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, Andijon viloyati iqtisodiyotida ushbu ko'rsatkichning nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishi hududda investitsion faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, to'qimachilik sanoatida kapital qo'yilmalarining barqaror va yuqori natijadorligi ushbu tarmoqning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv tizimlari, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish texnologiyalari va raqamli monitoring mexanizmlaridan foydalanish kapital mablag'lar samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri ekanligi aniqlandi. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash va investitsiya qaytimini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- investitsiyalarni yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan sanoat tarmoqlariga yo'naltirish;
- sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiya va avtomatlashtirish jarayonlarini kengaytirish;
- kapital mablag'lardan foydalanish samaradorligini doimiy monitoring qilish tizimini joriy etish;
- innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- tarmoqlarni diversifikatsiya qilish orqali investitsion barqarorlikni mustahkamlash;
- investitsion loyihalarni baholashda zamonaviy iqtisodiy va raqamli tahlil usullaridan foydalanishni kengaytirish.

Sanoat korxonalarida kapital mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiy faollikni kuchaytirish hamda milliy iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. В.М.Серов, Ю.П. Тихинов “Сравнительной оценке экономической эффективности инвестиционных вложений в производственный капитал” Вестник университета № 5, 2023 ст.131-141.
2. Симионова Н.Е. Инвестиционные проекты в строительстве: управление и оценка эффективности. Экономика строительства. 2020;2 (62):59-65 с
3. Хамдамов, Р. “То‘qimachilik sanoatining global iqtisodiyotdagi o‘rni va samaradorligi. Global iqtisodiyot va raqobatbardoshlik. 2021-yil 18(2), 101-107.
4. Дасковский В.Б., Киселев В.Б. Новый подход к экономическому обоснованию инвестиций. М.: Канон РООИ «Реабилитация»; 2016. 400 с
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.
6. Marifovich, M. M. (2023). The effect of product diversification on the economic efficiency of industrial enterprises. Deutsche Internationale Zeitschrift für Zeitgenossische Wissenschaft, (68).
7. Mukhtarov, M. (2023). Ways to increase the economic efficiency of textile industry.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, aprel, 4-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**